

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi
№ _____
“___” ____ 2022 y.

“Tasdiqlayman”
O'quv ishlari prorektori _____
O.N.Bozorov
“___” ____ 2022 y.

**YER VA BINO INSHOOTLAR HUQUQI
FANI
SILLABUSI**

Bilim sohasi:	300000	Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lif sohasi:	310 000	Muhandislik ishi
Ta'lif yo'nalishi:	5311500	Geodeziya, kartografiya va kadastr (bino inshootlar kadastri)

Ushbu fan sillabusi o‘quv reja, ishchi o‘quv reja va fan dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi:

G‘ofirov M.J. –“Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Aliqulov G‘.N. – Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi mudiri q.x.f.n., dots.
Jo‘rayev A. – O‘zdaverloyiha DILI Qashvilerloyiha bo‘limi loyiha bosh muhandisi

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasining 2022 yil _____ dagi ____ son yig‘ilishida hamda “Geologiya va konchilik ishi” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil _____ dagi ____ son yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil _____ dagi ____ son yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O‘quv uslubiy boshqarma boshlig’i: _____ Sh.R.Turdiyev

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi: _____ M.J.G‘ofirov

Kafedra mudiri: _____ G‘.N.Aliqulov

“Yer va bino inshootlar huquqi” fani sillabusi

Fan (modul) kodi YBHX2203	O‘quv yili 2021-2022 2022-2023	Semestr 4-5	ECTS krediti 4/4
Fan (modul) turi Majburiy	Ta’lim tili o‘zbek		Haftalik dars soati 4/4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim	Jami yuklama
Yer va bino inshootlar huquqi	120	120	240
4-semestr	60	60	120
5-semestr	60	60	120

O‘qituvchi haqida ma’lumot

Kafedra nomi	Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish		
O‘qituvchilar	F.I.SH.	Telefon nomeri	e-mail
Ma’ruzachi	G‘ofirov Muzaffar Jumayevich	+998930720432	
Amaliy mashg‘ulot	G‘ofirov Muzaffar Jumayevich	+998930720432	

I.Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad- talabalarga hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko‘zlab yer va bino-inshootlardan ilmiy asoslangan tarzda oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash, xo‘jalik yuritishning barcha shakllarini teng xuquqiylik asosida rivojlantirish, yuridik va jismoniy shaxslarning yer va bino inshootlarga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish qonunchiliginu mustahkamlash uchun shart-sharoit yaratish maqsadida yer va bino-inshootlar munosabatlарини tartibga solishdan iborat.

Fanning vazifasi- talabalarga yer va bino- inshootlarga mulkiy huquq va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelishini, yerga va bino-inshootga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilmaxilligi, yer munosabatlari

ishtirokchilarining teng huquqligi hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishni o‘rganadi.

II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- Respublikamizda yer va bino - inshoatlardan oqilona foydalanishda yer va bino inshoatlar monitoringining o‘rni va ahamiyatini, xo‘jaliklarda yer kadastrini va monitoringini yuritish haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi***;

-«Ko‘chmas mulk obyektiga kadastr yig‘majildi» ni tayyorlash va ko‘chmas mulk obyektiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda, umumxo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan muhandislik obyektlarini joylashtirishda, yer kadastro loyihalarini tuzishni optimal usullarni aniqlash orqali ularning iqtisodiy samaradorligini xuquqiy baholashni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- Yer va bino-inshoatlarning xuquqiy holatlari ulardan optimal darajada foydalanish bo‘yicha ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak***.

III. Ta’lim texnologiyalari va uslublari

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o‘zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e’tibor auditoriya mashg‘ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o‘zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob’ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma’ruza mashg‘ulotlariga katta o‘rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o‘zlashtirish to‘rt xil:

- muammoli mavzular bo‘yicha;
- mustaqil o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan bo‘limlar bo‘yicha;
- ta’lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg‘otuvchi bo‘limlar bo‘yicha;
- ma’ruzalarni interfaol usulda o‘qitish yo‘li bilan;
- mustaqil ta’lim olish va ishslash, kollekviumlar va munozaralar jarayonida o‘zlashtiriladigan bilimlar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishslashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg‘ulotlari paytida qabul qilingan ma’lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko‘rsatishi zarur.

Fanni o‘zlashtirishda masofadan o‘qitish (modul platformasi), darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ma’ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma’ruzalar o‘qish, video-audio mashg‘ulotlar va elektron resruslar (Internet tarmog‘i orqali) dan foydalilanildi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o‘quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

IV. Fan tarkibi (ma’ruza mashg‘ulotlari)

Nº	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
4-semestr			
1,2	Yer va bino-inshootlar huquqi fanining predmeti va vazifalari	Yer huquqi tushunchasi va predmeti, yer huquqi tizimi, yer huquqi prinsiplari.	4
3,4	Davlatning yerga egalik qilishi va boshqaruvi. Yer fondini boshqarishda davlat organlari tizimi. Yer fondini boshqarishda davlat organlarining vakolatlari.	Davlatning yerga egalik qilishi va boshqaruvi. Yer fondini boshqarishda davlat organlari tizimi. Yer fondini boshqarishda davlat organlarining vakolatlari.	4
5,6	Yer uchastkasiga bo‘lgan mulkiy huquqlar, bitimlar, majburiyatlar va kafolatlar	O‘zbekiston Respublikasida yer huquqining rivojlanishi. Juridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlari. Yer uchastkasiga bo‘lgan mulkiy xuquq, bitim turlari va ularni rasmiylashtirish tartiblari. Yer uchastkasiga bo‘lgan mulk huquq	4

		egalarining xuquqlari, majburiyatlari va kafolatlari.	
7,8	Yer va bino-inshootlar kadastr yig'majildi va kadastr raqami	Yer uchastkasiga bo'lgan cheklanishni belgilovchi xuquqiy xolatlar. Yer uchastkasi ximoya xududini belgilovchi xuquqiy xolatlar. Yer uchastkasiga bulgan huquqni tasdiqlovchi va belgilovchi hujjatlar. Yer uchastkasiga bo'lgan mulkiy huquq va bitimlar xamda ularni tasdiqlovchi hujjatlar tahlili.	4
9,10	Yer toifasi turlari va yerga egalik qilish huquqiy holati	Yer fondi toifalari va yerga egalik qilish xuquqiy xolatlari. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar huquqiy holati. Boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarning yerdan foydalanish huquqi.	4
11,12	Aholi punktlari va boshqa toifalar yerlari huquqiy holati	Shahar (shaxarcha), qishloq aholi punkti yerlari tarkibi va huquqiy holati. Muxandislik inshootlari yerlari huquqiy holati. Muhofaza qilinadigan hududlar yerlari huquqiy holati	4
13,14	Yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) va bekor qilish	Yer uchastkalarini berish (realizasiya qilish) va xususiylashtirish. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni berish. Yer uchastkalarini imorat qurish uchun berish va undan foydalanish. Fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun yer uchastkalari berish yoki realizasiya qilish. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning bekor qilinishi.	4
15	Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazorat	Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning asosiy vazifalari va davlat nazoratini amalga oshirish tartibi. Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlar. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik. Yer uchun to'lovlar.	2
5-semestr			
1,2	Binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlar	Binolar va inshootlar egalari. Binolar va inshootlarga bo'lgan mulk va ashyoviy xuquqlar. Binolar va inshootlarga bo'lgan mulk huquqi. Binolar va inshootlarga bo'lgan xo'jalik yuritish huquqi. Binolar va	4

		inshootlarga bo‘lgan operativ boshqarish huquqi.	
3,4	Binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar	Bino va inshootlarga bo‘lgan mulkiy huquqlarning paydo bo‘lishi va boshqaga o‘tishini tasdiqlovchi hujjatlar. Turar joy binolari va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni va bitimlarni tasdiklovchi hujjatlar. Turar joy bo‘lmagan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni va bitimlarni tasdiqlovchi hujjatlar. Bino va inshootlarga bo‘lgan mulkiy huquqni cheklovchi va to‘xtatuvchi hujjatlar.	4
5,6	Bino-inshootni sotish va hadya qilish	Bino-inshootni sotish. Bino-inshootni xadya qilish.	4
7,8	Bino – inshootni ijaraga, lizingga yoki umrbod ta’minalash sharti bilan berish	Bino- inshootni ijaraga berish. Korxonani ijaraga berish. Bino -inshoot lizinggi. Uy-joyni ijaraga berish. Uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish.	4
9,10	Qonun bo‘yicha meros, vorislik va ishonchli boshqarish	Bino-inshoot merosi. Bino-inshootga qonun va vasiyat bo‘yicha vorislik. Bino-inshootni ishonchli boshqarish.	4
11,12	Bino-inshoot garovi va rentasi	Bino-inshootlar garovi tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari. Bino-inshootlar ipotekasi. Bino-inshootlar rentasi.	4
13,14	Muammoli bino-inshootlar huquqi	Mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan binolar va inshootlarni rasmiylashtirish. Umumiy mulkchilik yoki foydalanishda bo‘lgan binolar va inshootlarni taksimlashni rasmiylashtirish.	4
15	Uy-joy fondi	Uy-joy fondi turlari. Turar joy, undan foydalanish maqsadi.Turar joyga bo‘lgan mulk huquqi.	2

Amaliy mashg‘ulotlar

№	mavzular	soat
1	Yer huquqi tushunchasi va predmeti.	4
2	Davlatning yerga egalik qilish huquqiy xujjatlari taxlili.	4
3	Yer uchastkasiga bo‘lgan mulkiy huquqlar, bitimlar, majburiyatlar va kafolatlarning huquqiy taxlili .	4

4	Yer uchastkasiga bo'lgan cheklanish, ximoya xududi xamda huquqni tasdiqlovchi va belgilovchi hujjatlar taxlili.	4
5	Yer toifasi turlari va yerga egalik qilish huquqiy holati taxlili.	4
6	Axoli punktlari va boshqa toifalar yerlari va egalik qilish huquqiy xujjatlari taxlili.	4
7	Yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) va bekor qilish huquqiy xujjatlari taxlili.	4
8	Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun rasmiylashtiriladigan huquqiy xujjatlari taxlili.	2

5-semestr

1	Bino va inshootlar egalari, turlari va ularga bo'lgan huquqlar taxlili.	4
2	Binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar taxlili.	4
3	Bino-inshootni sotish va xadya qilish huquqiy xujjatlari taxlili.	4
4	Bino-inshootni ijaraga, lizingga yoki umrbod ta'minlash sharti bilan berish huquqiy xujjatlari taxlili.	4
5	Bino-inshootga qonun bo'yicha meros, vorislik va ishonchli boshqarish huquqiy xujjatlari taxlili.	4
6	Bino-inshoot garovi va rentasi huquqiy xujjatlari taxlili.	4
7	Muammoli bino- inshootlar huquqi.	4
8	Uy-joy fondi huquqiy xujjatlari taxlili.	2

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Laboratoriya mashg'ulotlari

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'lismi va mustaqil ishlari

Mustaqil ta'limi bajarish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Talaba fandan mustaqil ta'limi tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

- mavzular bo‘yicha konspekt (referat, taqdimot) tayyorlash. Nazariy materialni puxta o‘zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o‘quv materialiga diqqatni ko‘proq jalb etishga yordam beradi;
- o‘qitish va nazorat qilishni avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Talabalar ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar davomida olgan bilimlarini o‘zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar va boshqalar;
- fan bo‘yicha qo‘srimcha adabiyotlar bilan ishlash. Mustaqil o‘rganish uchun berilgan mavzular bo‘yicha talaba tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘srimcha o‘quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillardagi adabiyotlaridan foydalanish rag‘batlantiriladi;
- internet tarmog‘idan foydalanish. Fan mavzularini o‘zlashtirish uchun mavzu bo‘yicha internet manbalarini topish, ular bilan ishlash nazorat turlarining barchasida qo‘srimcha reyting ballari bilan rag‘batlantiriladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi;
3. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Uy joy kodeksi.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish» to‘g‘risidagi konuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining «O‘rmon tugrisida» gi konuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat yer kadastri to‘g‘risida»gi qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muxofaza kilish tugrisida» gi konuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari tugrisida» gi konuni.
10. O‘zbekiston Respublikasining «Ipoteka to‘g‘risida»gi qonuni.
11. O‘zbekiston Respublikasi «Garov to‘g‘risida» gi konuni.
12. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.

13.Mustakil xamdo‘stlik va boshqa davlatlarining yer to‘g‘risidagi konunlarini o‘rganish.

14. “Yer va bino-inshootlar huquqi” fani bo‘yicha qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

O‘quv rejasida kurs ishi rejajashtirilmagan.

VII. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma’ruza mashg‘ulotlarini ma’ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma’ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta’lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo‘yicha talabalalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTVning 2018 yil 9 avgustdaggi 9-2018-sod buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom” asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning)

mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.

VIII. Asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Rustamboyev M.H., va boshkalar. “Yer huquqi”. Darslik. Toshkent davlat yuridik instituti, 2002 y.
2. Negmatov A. “Yer huquqi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent Islom universiteti 2001 y.
3. YodgorovX., Tangaboyev B., Saidmuratov B. Ko‘chmas mulk va mulk huquqi. Amaliy qo‘llanma. Toshkent. “Baktria press”. 2017.-197 bet.
4. Otaxonov F., Qodirov K., Otaxonov S., Xajiyev N. Fuqarolik huquqiy shartnomalar. Amaliy qo‘llanma. Toshkent. 2010.-603 bet. www.bfu.uz, www.chamber.uz.

5. Jurakulov D.O. Yer va binolar - inshootlar huquqi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Fan, 2019.-304 b.
6. Jurakulov D.O. Binolar va inshootlar davlat kadastro.O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Qaqnus Media”. 2020. 445 bet.
7. Jurakulov D.O., Burxonov T.S., Yarkulov Z.R. Yer huquqi va kadastro. Maruza matni. SamDAQI, № 7-8, 24.05.2019 y.
8. Jurakulov D.O., Yarkulov Z.R., Umarov N.SH. “Davlat yer kadastrini yuritish” Kurs ishini bajarish uchun. Uslubiy qo‘llanma.Samarqand. SamDAQI. 30.10.2019 № 3.-152 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

9. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi “Yer kodeksi”.
10. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
11. O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi.
12. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagi «Garov to‘g‘risida»gi qonuni.
13. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risidagi” qonuni
14. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 28 avgustdagи “Davlat yer kadastro to‘g‘risida” gi qonuni.
15. O‘zbekiston Respublikasining 2006 yilning 4 oktabridagi «Ipoteka to‘g‘risida» gi qonuni
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish choratadbirlari to‘g‘risida» PF-5065-son farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 7 yanvardagi “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1-son qarori.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagи “Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 66-sonli qarori.

19. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2017 yil.
20. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2017.
21. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2008 yil 7 martdagи “Oliy ta’lim muassasalarida kurs loyihasini bajarish tartibi haqida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 61-sonli buyrug‘i 1-ilovasi, Toshkent, 2008.-8 b.

Axborot manbalari:

22. www.lex.uz—O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
23. <http://www.Ziyo.net>
24. <https://t.me/axborotnama> jurnali
25. <http://www.landkadast.com> <http://www.gisinfo.ru/edu/edu.htm>

